Boshlang'ich sinflar ta'lim tizimida kommunikativ ta'lim harakatlarini shakllantirishning tashkiliy-pedagogik shartlari	867
Shoira Rahimova Adilbekovna	
Raqamli texnologiyalar asosida talabalarning o'quv faoliyatini integrativ mexanizmlar orqali tashkil qilish va rivojlantirish.....	871
Sirojov Otajon Orifjonovich	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini mediata'lim resurslari vositasida rivojlantirish metodikasi	875
Suleymanova Ra'no Dustbekovna, Bekova Nilufar Aliboy qizi	
Nemis tilidan o'zbek tiliga tarjimada yuzaga keladigan lingvistik va kommunikativ qiyinchiliklar.....	881
Turamurodova Sevinch Anvarovna	
Globalashuv jarayonida ma'naviy-mafkuraviy mexanizmlarning estetik madaniyatda ifodalanishi	884
Xudayberdiyeva Xuriyat Karimberdiyevna	
Ta'limga kommunal xizmatlardan foydalanish madaniyatini olib kirishning dolzarbligi	888
Kodirova Kumushoy Farxodjon qizi	
Innovatsion yondashuvlar asosida ekologik ta'limni tashkil etish texnologiyalari	892
Allaberdiyeva Kumri Xamrayevna, Toshmurodova Marjona	
История, теоретические основы и современные направления развития вида спорта "кураш"	898
Дустов Дилмурод Каримович	
Совершенствование инновационных технологий через виды спортивной деятельности студентов педагогических высших учебных заведений.....	902
Турдиев Умиджон Камолiddинович	
Методика развития навыков самостоятельного обучения учащихся с помощью онлайн-образовательных платформ	906
Суяров Хуршид Бахриддинович	
Oliy o'quv yurtlari talabalari sport faoliyatining turli jihatlarida ta'lim innovatsiyalaridan foydalanish texnologiyalari	910
Turdiyev Umidjon Kamoliddinovich	
Роль оздоровительной аэробики в повышении физической подготовленности учащихся	914
Яхшиева Мехринигор Шавкатовна	
O'quvchilarda milliy tuyg'ularni tarkib toptirishning mazmuni (dastur, darsliklar tahlili) va vositalari.....	919
Begmatova Nasiba Safarbayevna	
Innovative Method for the Treatment of Chronic Periodontitis Using the "Geistlich Bio-Oss" Preparation..	923
Pardayev Xurshidjon Uralovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida harakatli o'yinlar orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish samaradorligi.....	926
Mirjamolov Sirojiddin Xayriddinovich	
Bo'lajak ona tili o'qituvchilarining kognitiv-pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari	931
Tursunoy Yusupova	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni qo'g'irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish.....	936
Zulayxo Nazarova, Musayeva Sayyora Erkaboy	

5-6 sinflarda matematika fanini o'qitishda mrt yondashuvini mblock v.5.4.3 dastur bilan takomillashtirish .	940
<i>Abduqodirova Patmaxon Tursunboevna, Moxinur Ruziyeva Mirzoulug'bek qizi</i>	
Kredit modul tizimida bo'lg'usi o'qituvchilarning muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	946
<i>Abdurasulova Shoira Kushakovna, Xaitqulova Gulrux Qaxramon qizi, Abdumo'minova Charos Baxodir qizi</i>	
Maktablarda matematikadan o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish	950
<i>Absattarova Gulmira</i>	
Pedagogik jarayonda innovatsion texnologiyalarning roli va samaradorligi	953
<i>Akromova Nigora Erkinovna</i>	
Harakatga oid masalalarni yechish jarayonida jadvallardan foydalanishning samaradorligi	955
<i>Raximova Shoira Adilbekovna, Axmadjonova Lobar Otabek qizi</i>	
Matematika darslarida interfaol metodlarning ahamiyati	959
<i>Bekniyazova Nursulu</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik asoslari	962
<i>Egamberdiyeva Yulduzxon Urinbayevna, Tojiboyeva Mo'nisaxon Umidbek qizi</i>	
Pedagogikaning mohiyati, vazifalari va ta'lim-tarbiyadagi zamonaviy yondashuvlar	965
<i>Ergasheva Dilnavoz Baxtiyor qizi</i>	
Zamonaviy ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish.....	968
<i>Isayeva Umida Nig'matjanovna</i>	
Matematika fanini o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati va uning pedagogik samaradorligi.....	970
<i>Mirzabaeva Malika</i>	
Bo'lajak energetik muhandislarni tayyorlashda yashil energetika ta'limini rivojlantirish	974
<i>Narimanov Baxodir Absalomovich</i>	
Modern Aspects of Epidemiological Issues in Periodontal Diseases Associated With the Consumption of Groundwater	977
<i>Nematova Farzona, Sankulov Jamshed Obloberdiyevich</i>	
Modern Insights Into the Epidemiology of Periodontal Diseases Linked to Groundwater Consumption.....	981
<i>Nematova Farzona, Sankulov Jamshed Obloberdiyevich</i>	
Falsafa fanining boshqa fanlar bilan integratsiyalash imkoniyatlari va metodologik asoslari hamda o'ziga xos xususiyatlari	983
<i>Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'gli</i>	
Pedagogik oliy ta'lim talabalarida liderlik qobiliyatini rivojlantirishda xorijiy tajribalar tahlili	986
<i>Shobduraximova Umriniso, Abduqaxxorova Moxinur</i>	
Logopedik mashg'ulotlarni tashkil etishda logopedik o'yinlarning ahamiyati va roli	990
<i>Yuldosheva Dilbarxon Turg'unovna</i>	
Mechanical Destruction of a Dental Implant.....	993
<i>Bojev Zukhriddin, Doniyorov Ortik</i>	
Инновационные подходы к диагностике и лечению кариеса: современные технологии в практике стоматолога.....	997
<i>Шукурова Нодира Тиллаевна, Шукуровна Наргиза Фуркатовна, Фуркатова Сабрина Фармоновна</i>	

INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA EKOLOGIK TA'LIMNI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARI

Allaberdiyeva Kumri Xamrayevna

Termiz davlat pedagogika instituti dotsenti (PhD)

Toshmurodova Marjona

3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion yondashuvlar asosida ekologik ta'limni tashkil etish texnologiyalarining nazariy va amaliy jihatlarini yoritilgan. Unda maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ong, ekologik madaniyat hamda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishning dolzarbligi asoslab berilgan. Shuningdek, ekologik ta'limni samarali tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari va didaktik o'yinlarning ahamiyati tahlil qilingan. Innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan ekologik ta'lim jarayoni bolalarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va ekologik mas'uliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: ekologik ta'lim, innovatsion yondashuv, pedagogik texnologiya, maktabgacha ta'lim, ekologik madaniyat, interfaol metodlar.

Abstract: This article examines the theoretical and practical aspects of technologies for organizing environmental education in preschool educational institutions based on innovative approaches. The relevance of developing environmental awareness, environmental culture, and a conscious attitude toward nature among preschool children is substantiated. The pedagogical conditions for the effective organization of environmental education and the role of didactic games are analyzed. It is scientifically justified that environmental education organized on the basis of innovative approaches contributes to the development of children's independent thinking, creativity, and environmental responsibility.

Key words: environmental education, innovative approach, pedagogical technology, preschool education, environmental culture, interactive methods.

Аннотация: В статье раскрываются теоретические и практические аспекты технологий организации экологического образования в дошкольных образовательных организациях на основе инновационных подходов. Обоснована актуальность формирования у детей дошкольного возраста экологического сознания, экологической культуры и осознанного отношения к природе. Проанализированы педагогические условия эффективной организации экологического образования, а также значение дидактических игр. Научно обосновано, что экологическое образование, организованное на основе инновационных подходов, способствует развитию самостоятельного мышления, творческих способностей и экологической ответственности детей.

Ключевые слова: экологическое образование, инновационный подход, педагогическая технология, дошкольное образование, экологическая культура, интерактивные методы.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik muammolarning oldini olish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirish, yosh avlodda ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirish ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Shu nuqta nazardan, ekologik ta'limni, ayniqsa, maktabgacha ta'lim bosqichidan boshlab samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim bosqich bo'lib, aynan shu davrda uning atrof-muhitga bo'lgan munosabati, qadriyatlari hamda xulq-atvorining asoslari tarkib topadi. Bolalarda tabiatga mehr, uni asrash va e'zozlash tuyg'ularini shakllantirish kelajakda ekologik mas'uliyatli shaxsni tarbiyalashning mustahkam poydevori hisoblanadi. Shu sababli, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik ta'limni zamonaviy, samarali va innovatsion yondashuvlar asosida yo'lga qo'yish dolzarb vazifa sifatida qaraladi.

Innovatsion yondashuvlar bolalarning bilish faolligini oshiradi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda ekologik bilimlarni ongli va puxta o'zlashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ekologik ta'lim jarayonida tajriba-sinov ishlari, kuzatishlar, didaktik o'yinlar va amaliy mashg'ulotlardan foydalanish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.



Maktabgacha ta'lim davri bolalarda dunyoqarash shakllanadigan, ijobiy odatlar va tuyg'ular asoslari yaratiladigan muhim bosqichdir. Ekologik ta'limni aynan shu yosh davrida berish bolaning tabiatga hurmat, mas'uliyat va ehtiyotkor munosabatini erta bosqichdanoq mustahkamlash imkonini beradi. Innovatsion yondashuvlar esa maktabgacha ta'lim tizimida ekologik ta'limni samarali tashkil etishning yangi pedagogik mexanizmlarini joriy etishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim sifatini oshirish bilan bir qatorda bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishni ham nazarda tutadi. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari jahon miqyosida muhim ahamiyat kasb etayotgan bir sharoitda, har bir shaxs, ayniqsa, voyaga yetib kelayotgan yosh avlodning bu borada zarur bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi muhim hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida tabiatga nisbatan ongli va ehtiyotkor munosabatni shakllantirishda tarbiyachilarning o'rni beqiyosdir. Shu bois, bolalarda o'z yashab turgan mahalliy hudud hamda O'zbekiston tabiatiga mehr-muhabbat va ehtirom tuyg'ularini bolalikdan shakllantirib borish kelgusida ushbu fazilatlarining izchil rivojlanib borishiga mustahkam zamin yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ekologik ta'lim masalasi pedagogika, psixologiya va ekologiya fanlari tutashgan muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar maktabgacha yosh davrida ekologik tarbiyani shakllantirish shaxs kamolotida muhim o'rin tutishini ilmiy jihatdan asoslab berganlar.

Mashhur rus psixologi L.S. Vigotskiy bolalar rivojlanishida ijtimoiy muhit va faoliyatning yetakchi rolini ta'kidlab, ta'lim jarayoni bolaning yaqin rivojlanish zonasiga mos bo'lishi zarurligini asoslab beradi. Uning fikriga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalar bilimni tayyor shaklda emas, balki faoliyat jarayonida, o'yin va tajribalar orqali o'zlashtiradi. Mazkur yondashuv ekologik ta'limda innovatsion metodlar – o'yin, kuzatish va tajribalar asosida ta'lim berishning ilmiy asosini tashkil etadi.

Amerikalik pedagog J. Dyui "ta'lim – bu hayotning o'zi" degan g'oyani ilgari surib, bolani real hayot bilan bog'langan faoliyat orqali o'qitish tarafdori bo'lgan. Uning qarashlariga ko'ra, ekologik ta'lim bolani tabiat bilan bevosita muloqotga kiritish va muammoli vaziyatlarni hal etishga yo'naltirish orqali yanada samarali amalga oshiriladi. Dyui ekologik ta'limda loyiha va muammo asosida o'qitish texnologiyalarini qo'llashni muhim deb hisoblaydi.

Mariya Montessori maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqillik va atrof-muhitni anglash jarayoni tabiiy rivojlanish asosida kechishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bolaning tabiat bilan bevosita aloqasi ekologik ongni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Montessori metodikasida tabiatni kuzatish, o'simlik va hayvonlarga g'amxo'rlik qilish bolada ekologik mas'uliyatni shakllantirishning samarali vositasi sifatida qaraladi.

Pedagog olimi N.F. Vinogradova maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tasavvurlarni shakllantirish masalasini chuqur tadqiq etgan. U ekologik ta'lim bolalarda nafaqat bilim, balki hissiy munosabat va axloqiy qadriyatlarni ham shakllantirishi zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ekologik tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish bolalarning qiziqishini oshiradi va ta'lim samaradorligini kuchaytiradi.

Zamonaviy tadqiqotchilar ekologik ta'limni barqaror rivojlanish ta'limi konsepsiyasi bilan uzviy bog'laydilar. Ularning qarashlariga ko'ra, maktabgacha yoshdan boshlab bolalarda resurslardan oqilona foydalanish, tabiatga zarar yetkazmaslik va ekologik xavfsizlik tushunchalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda interfaol metodlardan foydalanish alohida ahamiyatga ega.

Olimlarning ilmiy qarashlari shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik ta'limni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish pedagogik va psixologik jihatdan to'liq asoslangan. O'yin, loyiha, tajriba hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish bolalarda ekologik ong va ekologik madaniyatni samarali shakllantirish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda kichik guruhdan boshlab ekologik tushunchalarni shakllantirish, ekologik ta'lim va tarbiya berishning zamonaviy hamda innovatsion usullarini izlab topish va ularni amaliyotga joriy etish mazkur tadqiqotning asosiy metodologik yo'nalishini tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik ta'limni tashkil etishning samarali shakl va vositalarini aniqlashga alohida e'tibor qaratildi.

Ekologiya tirik mavjudotlarning yashash sharoiti hamda ularning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlari o'rganadigan fan sohasi hisoblanadi. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari tomonidan bolalarda ekologik ong, ekologik faoliyat, ekologik mas'uliyat va ekologik madaniyatni shakllantirish, shuningdek, olingan bilimlardan maqsadli foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifa sifatida belgilandi.

Xalqimizning “Sogʻ tanda – sogʻlom aql” degan naqli asrlar davomida avloddan avlodga oʻtib kelmoqda. Ushbu hikmat atrof-muhitning tozaligi, tabiatning sofligi va goʻzalligi insonning bolalikdan sogʻlom, jismonan baquvvat hamda aqlan yetuk boʻlib voyaga yetishida muhim ahamiyat kasb etishini ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan, ekologik taʼlim va tarbiya maktabgacha taʼlim muassasalarida bolalarda tabiat haqidagi tasavvurlarni shakllantirish orqali, asosan, tabiat bilan tanishtirish mashgʻulotlari jarayonida amalga oshiriladi.

Mashgʻulotlar davomida bolalarda jonli va jonsiz tabiat, oʻsimliklar hamda hayvonot dunyosi haqidagi bilimlar bosqichma-bosqich shakllantirildi. Shuningdek, tabiatning rang-barangligi, uning foydali va zararli jihatlari tushuntirilib, uni asrab-avaylash, rivojlantirish va boyitish zarurligi, bu borada har bir insonning masʼuliyati mavjudligi uqtirildi. Shu sababli “Ilk qadam” Davlat oʻquv dasturida tabiat bilan tanishtirish har bir yosh guruhida oʻtkaziladigan mashgʻulotlar tizimida muhim oʻrin egallaydi.

Ekologik taʼlim va tarbiya kichik guruhdan boshlab izchil tashkil etiladi. Ushbu bosqichda bolalarni tabiat bilan tanishtirish, jonli mavjudotlarga qiziqishini oshirish, ularga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirish hamda oʻsimlik va hayvonlarni parvarish qilishda kattalarga yordam berishga oʻrgatish asosiy metodik vazifalar sifatida belgilandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida bolalarda tabiat hodisalari – yomgʻir yogʻishi, qor yogʻishi, quyosh nurlarining taralishi, shamol esishi kabi holatlarni kuzatish va ularni ifodalash koʻnikmalari shakllantirildi. Shuningdek, koʻkatlar, daraxtlar va ularning farqlovchi belgilarini (koʻkatlar – past boʻyli va koʻk rangli, daraxtlar – baland boʻyli hamda barglari koʻp boʻlishi) ajrata olishga oʻrgatildi.

Maydonchaga uchib keluvchi qushlar va ularning xatti-harakatlari (uchishi, daraxtga qoʻnishi, choʻqishi, tovush chiqarishi) bilan tanishtirish ishlari izchil tashkil etildi. Tabiat burchagida bolalarga xona oʻsimliklari va qafasdagi qushlar koʻrsatilib, ularning nomlarini ayta bilish, oʻsimliklarga suv quyish, qushlarga ozuqa va suv berish hamda ularni parvarish qilish koʻnikmalari shakllantirildi.

Oʻsimliklar olami bilan tanishtirish jarayonida bolalarga olma, limon, apelsin kabi mevalar namoyish etilib, ularning tashqi koʻrinishi va taʼmini farqlashga oʻrgatildi. Shuningdek, hududda va xonada gullaydigan gullar hamda daraxtlarni ajrata bilish va ularning nomlarini aytish malakalari rivojlantirildi. Hayvonot olamini oʻrganishda esa bevosita kuzatishlar, rasmlar va oʻyinchoqlar orqali bolalar kuchuk, mushuk, tovuq, xoʻroz, echki, sigir, quyon, ayiq kabi jonivorlar hamda ularning bolalari (joʻja, mushukcha, uloq, buzoq va boshqalar) bilan tanishtirildi. Jonivorlarning tana qismlari (kalla, dum, oyoq) hamda bosh qismi aʼzolari (quloq, shox, koʻz, ogʻiz) nomlarini toʻgʻri ayta bilish koʻnikmalari shakllantirildi. Shuningdek, bolalar jonivorlarning eng koʻzga tashlanadigan xususiyatlarini ajrata olishga oʻrgatildi: sigir va echkida shoxning mavjudligi, xoʻrozda chiroyli tojning boʻlishi, quyonda uzun quloq va kalta dumning mavjudligi, ayiqda esa kichik quloqlar va dumning yoʻqligi kabi belgilar misol qilib koʻrsatildi. Bundan tashqari, bolalar xoʻrozning qichqirishi, mushuk va kuchukning ovoz chiqarishini farqlay olish malakalarini egalladilar.

Oʻrta guruhda bolalarda oʻsimliklar va hayvonot olami, tabiatdagi mavsumiy oʻzgarishlar haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga alohida eʼtibor qaratildi. Atrof-tabiatga muhabbat, uning goʻzalligidan zavqlanish, oʻsimlik va jonivorlarga ehtiyotkorona munosabatda boʻlish hissini tarbiyalash maqsadida buta va gullarni bosmasdan aylanib oʻtish, ularni parvarish qilish va ulardan zavqlanishga oʻrgatish ishlari olib borildi.

Katta guruhda bolalarning yaqin atrofda oʻsimliklar, uy va yovvoyi hayvonlar, tirik mavjudotlarning yashash sharoitlari hamda tabiatdagi fasllar va hodisalar haqidagi mavjud tasavvurlarini aniqlash, tartibga solish va kengaytirish ishlari amalga oshirildi. Tabiat obyektlarining oʻziga xos va muhim belgilarini aniqlash asosida umumlashgan tasavvurlar shakllantirildi. Shuningdek, bolalarda ona yurt tabiatiga muhabbat va ehtiyotkorlik tuygʻularini tarbiyalash, oʻsimliklar, hayvonlar hamda tevarak-atrof goʻzalligidan zavqlanishga oʻrgatish muhim vazifa sifatida belgilandi. Bolalarni tabiatda oʻzini madaniyatli tutish, dam olish joylarini iflos qilmaslik, gullab turgan oʻsimliklar, butalar va hayvonlarni asrashga oʻrgatish boʻyicha tizimli ishlar olib borildi.

Tayyorlov guruhida bolalarning jonli va jonsiz tabiat haqidagi tasavvurlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, ularni hayvonlar va oʻsimliklar dunyosi bilan tizimli ravishda tanishtirish, tabiat hodisalarining fasllarga qarab oʻzgarishini yil davomida kuzatish hamda tabiat taqvimida aks ettirish ishlari amalga oshirildi. Shu bilan birga, bolalarda tabiatga nisbatan mehr-muhabbat va gʻamxoʻrlik koʻnikmalarini shakllantirish, oʻsimliklarni payhon qilmaslik, hayvonlarga ozor bermaslik hamda tabiat qoʻynida oʻzini odobli tutish (butalar va daraxtlarni sindirmaslik, hayvonlarni qoʻrqitmaslik, dam olish joylarida chiqindi qoldirmaslik) kabi xulq-atvor meʼyorlarini singdirish maqsadga muvofiq deb topildi.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, maktabgacha taʼlim tashkilotlarida ekologik taʼlim va tarbiyani tashkil etishda empirik, kognitiv, evristik, kreativ va adaptiv pedagogik texnologiyalardan foydalanish mashgʻulotlar samaradorligini oshiradi hamda bolalarning bilish faolligini rivojlantiradi. Empirik texnologiya sezgi aʼzolari orqali bilim olishga asoslanib, bolalarda kuzatuvchanlikni kuchaytiradi. Kognitiv texnologiya atrof-olam haqidagi



bilimlar doirasini kengaytirishga xizmat qilib, tahliliy tafakkurni rivojlantiradi. Evristik yondashuv yo'naltiruvchi savollar asosida izlanishga undab, topqirlik va faollikni oshiradi. Kreativ texnologiya bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yo'naltiriladi, adaptiv yondashuv esa axborotni o'zlashtirish va undan foydalanish jarayonini qulaylashtirish orqali kutilgan natijalarga erishishni ta'minlaydi.

Shuningdek, didaktik o'yin texnologiyalari asosida tashkil etilgan noan'anaviy mashg'ulot shakllari ham yuqori samaradorlikni ko'rsatdi. Jumladan, ishchanlik o'yini darsi mashg'ulot mavzusi bo'yicha masalalarni hal etish jarayonida bolalarning faol ishtirokini ta'minlab, yangi bilimlarni mustahkamlashga xizmat qildi. Rolli o'yin mashg'ulotlari esa bolalarga oldindan belgilangan rollarni bajarish orqali mavzuga oid bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish imkonini berdi.

- Teatrlashtirilgan mashg'ulot** – mashg'ulot mavzusi bilan bog'liq sahna ko'rinishlarini tashkil etish orqali mavzu bo'yicha chuqur va aniq bilimlar berishga yo'naltirilgan dars shaklidir.
- Kompyuter mashg'uloti** – mashg'ulot mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimedia, virtual o'quv kurslari va shu kabilari) asosida tashkil etiladigan dars shaklidir.
- Yarmarka mashg'uloti** – mashg'ulot mavzusini bo'laklar bo'yicha oldindan o'zlashtirgan bolalarning o'zaro muloqot asosida guruhga qiziqarli tarzda tushuntirishlari orqali o'tkaziladigan mashg'ulotdir.
- Integral (integratsiyalashgan) mashg'ulot** – bir nechta mashg'ulot turlariga oid, integratsiya qilish uchun qulay bo'lgan mavzular asosida tashkil etiladigan mashg'ulot bo'lib, u bolalarning turli mashg'ulot turlariga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda ta'lim jarayonidagi faolligini ta'minlaydi.
- “Mo'jizalar maydoni” mashg'uloti** – bolalar bilan o'tkaziladigan qiziqarli o'yin shaklidagi mashg'ulot bo'lib, turli savollarga belgilangan vaqt davomida to'g'ri javob topish va g'oliblarni rag'batlantirish orqali bolalarda fikrlash, topqirlik, ziyraklik hamda bilimlarni kengaytirish sifatlarini rivojlantiradi.

Didaktik o'yinlarni tanlashda ishtirokchilarning yoshi, bilim darajasi va tarbiyalanganlik holati hisobga olinadi. Har bir didaktik o'yin mashg'ulotiga o'ziga xos xavfsizlik talablari qo'yiladi. Ushbu talablarning to'liq bajarilishi har bir tashkilotchining doimiy e'tiborida bo'lishi lozim. Shuningdek, har bir didaktik o'yin uchun ajratiladigan vaqt miqdorini to'g'ri belgilash va unga rioya qilish, mashg'ulotning maqsadiga muvofiq foydalanish muhim ahamiyatga ega.

“Klaster” o'yini

Maqsad: Klaster usuli asosida daraxt mevalari turlarini guruhlash, ayrim belgilariga ko'ra umumlashtira olish hamda bolalarda diqqat va kuzatuvchanlikni rivojlantirish.

Kerakli jihozlar: Turli quruq va ho'l mevalarning alohida-alohida rasmlari.

O'yinning borishi: Bolalarga turli xil quruq va ho'l mevalarning alohida-alohida rasmlari to'plami tarqatiladi. Bolalar mevalarni turiga qarab guruhlaydilar: ho'l mevalarga olma, o'rik, shaftoli, gilos, nok; quruq mevalarga esa yong'oq, bodom, pista kabilarni ajratadilar.

“Charxpalak” texnologiyasi asosida “Nimaning bolasi?” o'yini

Maqsad: Bolalarni hayvonot olami bilan yaqindan tanishtirish hamda ularning so'z boyligini oshirish.

Kerakli jihozlar: Ot, toychoq, echki, uloqcha, qo'y, qo'zichoq, mushuk, mushukcha, tuya, bo'taloq tasvirlari.

O'yinning borishi:

Tarbiyachi bolalarga murojaat qiladi: “Bolajonlar, hayvonlarning bolalariga onasini topishga yordam beramiz”. Bolalar berilgan tasvirlar asosida har bir hayvon bolasi uchun mos onasini topadilar va juftlaydilar (1-jadval).

1-jadval: Hayvonlar va ularning bolalarini moslashtirish bo'yicha didaktik o'yin namunasi

№		Mushukning bolasi	Qo'yning bolasi	Tuyaning bolasi	Echking bolasi	Otning bolasi
1	Toychoq					*
2	Uloqcha				*	
3	Mushukcha	*				
4	Qo'zichoq		*			
5	Bo'taloq			*		



Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar, jumladan innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga bo'lgan qiziqish va e'tibor tobora kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilganda pedagoglar tomonidan o'quvchilarni bilimlarni mustaqil izlashga, ularni tahlil qilishga hamda xulosalarni mustaqil chiqarishga yo'naltirish imkoniyati kengayadi. Pedagog bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishi uchun zarur sharoit yaratadi. Shu bilan birga, u boshqaruvchi va yo'naltiruvchi vazifasini bajarib, o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Dastlabki bosqichda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning ekologik bilim, ko'nikma va munosabatlar darajasini aniqlash maqsadida kuzatish, suhbat va diagnostik topshiriqlardan foydalanildi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, bolalarda tabiatga nisbatan qiziqish mavjud bo'lsa-da, ekologik tushunchalar ko'proq umumiy va yuzaki xarakterga ega bo'lgan.

Aksariyat bolalar tabiat obyektlarini nomlay olgan, biroq ularni asrash zarurati haqida yetarli tushunchaga ega bo'lmagan; suv, havo va o'simliklarning ahamiyatini bilgan, ammo resurslarni tejashga oid amaliy xatti-harakatlarni muntazam namoyon etmagan; chiqindilarni saralash, tabiatga zarar yetkazmaslik kabi ekologik qoidalarga yetarli darajada amal qilmagan. Ushbu holat ekologik ta'lim jarayonida an'anaviy yondashuvlar ustunligini va innovatsion metodlardan foydalanish zarurligini ko'rsatdi.

Shu munosabat bilan ekologik ta'lim jarayoniga quyidagi innovatsion yondashuvlar joriy etildi:

- ekologik mazmundagi didaktik va rolli o'yinlar;
- loyiha faoliyati ("Biz tabiatni asraymiz", "Bog'chamizdagi yashil burchak");
- amaliy tajribalar va kuzatishlar;
- raqamli va vizual vositalardan foydalanish.

Mazkur faoliyatlar jarayonida bolalarning ishtiroki sezilarli darajada faollashgani kuzatildi. O'yin va loyiha asosidagi mashg'ulotlar bolalarda ijobiy emotsional munosabatni shakllantirib, ekologik tushunchalarni ongli va mustahkam o'zlashtirishga xizmat qildi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, innovatsion yondashuvlar bolalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirdi, ekologik vaziyatlarga nisbatan ongli munosabatni shakllantirdi hamda jamoada ishlash va mas'uliyat hissini kuchaytirdi. Natijada bolalarda ekologik bilimlar hajmi sezilarli darajada oshdi, tabiatga ehtiyotkor munosabat va ekologik xulq-atvor ko'nikmalari shakllandi, ular ekologik muammolarni sodda darajada tushuntira olish va ularni hal etish bo'yicha takliflar bera boshladilar. Shuningdek, ekologik faoliyatga bo'lgan qiziqish barqarorlashdi.

Tarbiyachilar faoliyati tahlili ham shuni ko'rsatdiki, innovatsion metodlardan foydalanish pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirdi va ta'lim jarayonining sifatini yanada yaxshiladi.

Xalq og'zaki ijodidagi maqollar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ekologik ongni shakllantirishda "Gul tikansiz bo'lmas", "Daraxt bir joyda ko'karadi", "Jo'jani kuzda sanaydilar", "Ikki quyonna quvlagan birini ham tutolmas", "Yaxshidan bog' qoladi, yomondan dog' qoladi", "Bog' jamoli bog'bonda", "Bulut yig'laydi, gul kuladi" kabi maqollardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologiya bo'yicha boshlang'ich ta'lim-tarbiya berishning asosiy maqsadi ularni tabiatni sevadigan, uni asrab-avaylaydigan, odobli, erkin fikrlovchi va sog'lom barkamol avlod sifatida tarbiyalashdan iboratdir. Bolalarda tabiat bilan muloqot qila olish, tabiatga qiziqish uyg'otish, uning bebaho boyliklari va ekologik g'oyalarni keng targ'ib etish bugungi kun talabi hisoblanadi.

Ekologik ta'lim-tarbiyaning samaradorligi, avvalo, mashg'ulotlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, bunda tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarining roli alohida ahamiyatga ega. Bolalarning tabiatga mas'uliyatli va ehtiyotkorona munosabatda bo'lishlariga erishish ekologik ta'lim-tarbiyaning maqsadlarini to'g'ri belgilash orqali ta'minlanadi. Sog'lom tabiiy muhit bo'lmagan sharoitda na iqtisodiy, na ijtimoiy taraqqiyot to'liq amalga oshishi mumkin emasligini inobatga olgan holda, bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berishda innovatsion yondashuvlardan keng foydalanish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish ko'nikma va malakalarini shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarga ekologik ta'lim berishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish masalasining dolzarbligini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab berdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha yosh davri bolalarda ekologik ong, ekologik madaniyat hamda tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirish uchun eng muhim bosqich hisoblanadi.



Innovatsion yondashuvlar – o'yin, loyiha, tajriba-sinov hamda raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar orqali ekologik ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Faoliyatga asoslangan va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar bolalarning ekologik bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishiga, ularni kundalik hayotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ekologik ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish bolalarda nafaqat bilim, balki ekologik xulq-atvor, tabiatga mehr-muhabbat va ehtiyotkorlik hissini ham shakllantiradi. Shu bilan birga, mazkur yondashuvlar tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini oshirishga hamda ta'lim jarayonining mazmuni va sifatini yaxshilashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik ta'limni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish ekologik barqarorlik, sog'lom turmush tarzi va ekologik madaniyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalashning muhim pedagogik sharti hisoblanadi. Shu bois, ekologik ta'limni maktabgacha ta'lim tizimida ustuvor yo'nalish sifatida rivojlantirish hamda innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish dolzarb vazifa bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kurbanova, S. I., & Radjabova, G. M. (2025-yil). Environmental Education for Preschool Children. Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations, 1(2), 186–189. – Unda bolalarda ekologik madaniyat va atrof-muhitga mehrni shakllantirish masalalari yoritilgan.
2. Sanginova, G. B. (2024-yil). Improving Organization in the First Environmental Education of Preschool Children. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(4), 440–447. – Maktabgacha ekologik ta'limni tashkil etish strategiyalari tahlil qilingan.
3. Ahmatova, F. X. (2024-yil). Maktabgacha ta'limda ekologik tarbiya: dolzarb muammolar va yechimlar. Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali. – Pedagogik yondashuvlar va metodik tavsiyalar bayon etilgan.
4. Xolmirzayeva, O. M. (2023-yil). 5–6 yoshli bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish yo'llari. Pedagog. – Ekologik madaniyatni shakllantirishda ijodiy metodlar yoritilgan.
5. Xudayberdiyeva, T. (2022-yil). Maktabgacha ta'limda ekologik ta'lim va madaniyatni tarbiyalashning ilmiy metodologik va didaktik tamoyillari. Innovative Development in Educational Activities. – Ekologik ta'limning nazariy-metodologik asoslari yoritilgan.
6. Abdullayev, F. M. (2025-yil). Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ongning psixologik yechimlari. Modern Education and Development, 17(7), 155–159. – Ekologik ongning psixologik jihatlari tahlil qilingan.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.